
Maktabgacha ta'lim qamrovi darajasi 88,1 foizga yetgan Rishton tumanida DMTTlarni ta'mirlash va o'z egalariga topshirish jarayonlari davom etmoqda

So'nggi yillarda mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimiga katta e'tibor qaratilmoqda. Negaki, maktabgacha ta'lim tizimi uzluksiz ta'limning birlamchi, eng asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Mutaxassis va pedagoglarning ilmiy xulosalariga ko'ra, inson o'z umri davomida oladigan barcha axborot va ma'lumotning 70 foizini 5 yoshgacha bo'lgan davrda oladi. Ana shu dalilning o'zi bolalarimizning yetuk va barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishida bog'cha tarbiyasi qanchalik katta ahamiyatga ega ekanini yaqqol ko'rsatib turibdi.

Bunga qo'shimcha isbot qidirib uzoqqa borishning hojati yo'q. Bog'cha tarbiyasini olgan bola bilan bog'chaga bormagan bolani solishtirganda, ularning fikrlash darajasi o'rtasida yer bilan osmoncha farq borligini sezish qiyin emas. Shuning uchun ham biz maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, yangi bog'chalar qurish bo'yicha davlat dasturi qabul qilinib, amalga oshirilmoqda. Rivojlangan davlatlar tajribasi hisobga olinib, nodavlat ta'lim muassasalari, jumladan, nodavlat bog'chalar tarmog'ini kengaytirishga ham katta ahamiyat qaratilmoqda. Bu esa tizimda sog'lom raqobatni shakllantirish hamda ta'lim xizmatlari turini ko'paytirishga xizmat qiladi.

Rishton tumanida hozirgi kunda jami 187 ta davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyat olib bormoqda. Tarbiyalanuvchilarni qamrab olish 88,1% ga yetkazildi. Besh yil oldingi davr bilan solishtirganda katta tafovutni ko'rish mumkin. Bugungi kunga qadar tumanimizda ko'plab yangi maktabgacha ta'lim muassasalari foydalanishga topshirildi. Mustaqillik bayrami arafasida Ablullabayon MFY hududidagi 39-DMTTning yangi binosi foydalanishga topshirilishi rejalashtirilgan.

Umuman olganda, yangi o'quv yiliga barcha maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'mirlash ishlari yakunlanib tayyor holga keltirildi. Tashkilotlarda "Yangi O'zbekistonda el aziz, inson aziz" shiori ostida turli tadbirlar tashkil etilmoqda.

Rishton tumani hokimligi axborot xizmati

2022-08-10 14:02:25